

OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA PSIXOLOGIYA FANINI O'QITISH.

Jetesova Aynura Kuandikovna

Ajiniyoz nomidagi NDPI, Gumanitar va jamiyatlik fanlarni oraliqdan o'qitish kafedrasida o'qituvchisi.

Annotasiya: Bu maqolada Oliy ta'lim muassasalarida psixologiya fanini o'qitish to'g'risida to'liq ma'lumot berilgan. Talaba, shaxsdagi psixologik jarayon, holatlarini yuzaga kelish mexanizmlarini, qonuniyatlarini, talabalarga psixologiya fanini o'qitish to'g'risida olib borilayotgan jarayonlar batafsil yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Psixologiya, pedagogika, fiziologiya, ta'lim, metodika, xotira, faoliyat, maqsad, dars, rivojlanish.

ПРЕПОДАВАНИЕ ПСИХОЛОГИИ В ВУЗАХ.

Аннотация: В данной статье представлена исчерпывающая информация по преподаванию психологии в высших учебных заведениях. Подробно объясняются студенту, психологический процесс в личности, механизмы его возникновения, закономерности, процессы преподавания психологии студентам.

Ключевые слова: Психология, педагогика, физиология, воспитание, методика, память, деятельность, цель, урок, развитие.

TEACHING PSYCHOLOGY IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS.

Abstract: This article provides comprehensive information on the teaching of psychology in higher education institutions. The student, the psychological process in the individual, the mechanisms of occurrence, laws, and the processes of teaching psychology to students are explained in detail.

Key words: Psychology, pedagogy, physiology, education, methodology, memory, activity, goal, lesson, development.

Psixologiya — inson faoliyati va hayvonlar xatti-harakati jarayonida voqelikning psixik aks etishi, ruhiy jarayonlar, holatlar, hodisalar, hislatlar to'g'risidagi fan. Psixologiyaning tadqiqot predmetiga sezgilar va idrok obrazlari, tafakkur va hissiyot, faoliyat va muomala kabi psixologik jarayonlar, kategoriyalar kiradi. Psixologiyaning asosiy vazifalari — psixika qonuniyatlarini, inson ruhiy holatlari shakllanishini filogenetik va ontogenetik taraqqiyot birligida ochishdan iboratdir. Mazkur vazifalar yechimini topishda psixologiya bir tomondan, biologiya fani sohalari bilan, jumladan, fiziologiya bilan, boshqa tomondan esa, sotsiologiya, pedagogika, madaniyat tarixi, mantiq hamda ijtimoiy fanlar bilan jips aloqaga kirishadi. Psixologiya eng avvalo, psixikaning insonga xos shakli bo'lmish ong va o'zini o'zi anglashni tadqiq etadi.

Ta'lim oldiga qo'yilgan vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish ta'lim tizimini boshqarish va unga rahbarlik qilish faoliyatining saviyasiga bog'liq. Kelajagi buyuk jamiyatning rivojlanish talablaridan kelib chiqib, maorifning o'rni va roliga yangi avlodni tarbiyalash nuqtayi nazaridan qarab, Oliy Majlis materiallarida, Prezidentimiz ma'ruzalarida, maxsus qarorlarida rahbarlikni yuqori ilmiy darajada amalga oshirish zarurligiga alohida e'tibor berib kelinmoqda. Ta'lim tizimiga ilmiy rahbarlik asoslarini ishlab chiqish pedagogika va psixologiya uchun asosiy yo'nalishdir. Barkamol avlodni o'qitish va tarbiyalash tajribalarini o'rganish, umumlashtirish, bu jarayonning qonuniyatlarini ochib berish, pedagogika va psixologiya nazariyasining asosiy masalalarini ta'lim amaliyotiga va fan yutuqlarini nazarda tutgan holda I. A. Karimov asarlari asosida ijodiy hal qilish pedagogika va psixologiyaning burchidir. Dars berish metodikasi-bu o'quv fani xususiyatining sharti sifatida ta'lim va tarbiya jarayonining tizimi haqidagi ko'rsatmadir. Bu tizimni bilish o'qituvchiga psixologiyaning tarbiyalovchi va rivojlantiruvchi maqsadlarini va o'qitish jarayonini boshqarish imkonini beradi. Psixologiyani o'qitish metodikasi barcha psixologiya sohalari uchun umumpedagogik qoidalarni ajratib ko'rsatish bilan birga psixologik materiallarini o'rganishning o'ziga xosligini moslashtirishga asoslanadi. Psixologiya o'qitish metodikasi o'qituvchining o'quvchilarga psixologiyaga doir bilimlarni ongli mustahkam ravishda egallab olishlari uchun o'quv materialini yetkazishning oqilona usul va vositalarini ko'rsatadi. Shu bilan birga pedagogika — o'qituvchi uchun retseptlar va ko'rsatmalar to'plami emas, balki ilmiy fan hisoblanib, uning qoidalari psixologiyani o'qitish jarayoni qonuniyatlarini shunga mos ravishda ishlab chiqishga asoslanadi. Metodika—pedagogik fanlar, shuningdek, ijtimoiy tizim talab qiladigan, pedagogika fani ko'rsatgan umumiy o'rta va oliy ta'limning maqsad vazifalariga mos ravishda ishlab chiqiladi. Metodika o'quv jarayoni mazmunini, ta'lim va tarbiya usullari va shakllarini o'rganadi. Metodikaning barcha bo'limlari bir-biriga bog'liq bo'ladi. Metodika o'quv faoliyatida qo'laniladigan usul va vositalar shuningdek, o'qitishning noan'aviy uslublarini belgilab beradi. Shu tariqa, metodika quyidagi savollarga javob beradi: Psixologiyani nima uchun o'rganish kerak? Nimaga va qanday o'qitish kerak? Qanday qilib va nima bilan tarbiyalash kerak? Psixologiya o'quv fani sifatida o'qitish shakli va usullarining o'ziga xosligi bilan farq qiladi. Psixologiya o'quv fani sifatida maqsadi, hajmi, tuzilishi, usullari va ifoda etilishi bo'yicha farqlanadi. Psixologiya fanining maqsadi — fan tomonidan qo'lga kiritilgan ma'lumotlar va qonuniyatlar haqida o'quvchilarga, talabalarga axborotlarni yetkazishdan iborat. O'quv darsini olib borishga vaqt cheklangan bo'lib, bunda o'quvchilar ortiqcha ma'lumotlar bilan band etmay mustahkam ilmiy asosdagi bilimlar va muammolar bilan tanishtiriladi. O'quv fanida bilimlar tuzilishi va ulami bayon etilishi shakllari boshqacha, bo'lib, bu haqda K.D.Ushinskiy quyidagi fikrni ilgari suradi: «Fanni ilmiy va pedagogik bayon etish — bu ikkita turli narsalardir va butun dunyo pedagoglari ilmiy tizimlarni pedagogika

fanini qayta ishlash ustida faoliyat olib bormoqdalar». Shunday qilib, o'quv fani maktab, kollej, institut, umumiy ta'lim muassasalari va o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos qonuniyatlari bilan belgilanadigan, mutaxassislik doirasidagi kerakli fanlardan tanlab olingan bilimlarni o'zida birlashtiradi. Metodikaning fan sifatida rivojlanishi o'qituvchining shaxsiy tajribasi asosidagi metodik fikrlari, pedagogik mahoratdan ilmiy umumlashtirish, tadqiqotlarda asoslangan subyektiv ijodiyotdan obyektiv ilmiy nazariyaga o'tib borishda davom etdi. Umumanolganda, har bir o'qituvchi gurulilar va sinflarda hamda yillar davomida metodik usullar samaradorligini tekshirib o'zi dars o'tish jarayonini o'rganib boradi. Eng muhim metodik yangiliklarni oldingilarga bog'lagan holda eng qulay usullarini ishlab chiqib, uni amalga oshirishdan iboratdir. Psixologiyani o'qitish jarayonida ishlab chiqilgan qonuniyatlari asosida metodika fan sifatida belgilandi. Metodika o'zining o'rganish obyektiga ega bo'lib psixologiyaning tarbiyalovchi va rivojlantiruvchi o'qitishning barcha masalalarini qamrab oladi. Uning boshqa o'quv fanlari metodikalaridan farq qiluvchi jihati psixologiyani o'rganish xususiyatlari, sabablari o'ziga xosliklari mavjud bo'lib shunga bog'liq ravishda o'qitish usullari qo'llaniladi. Fan o'zining kashf etgan qonuniyatlari asosida hodisalarning bog'liqlik sabablarini tushuntirib beradi va shu bilan bu hodisani ma'lum sharoitlarda deyarli takrorlash imkonini beradi. Metodikada bunday qonuniyatlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- psixologiya o'quv materiallari tuzilishi va mazmunida fanlarni birlashtirib olib borish;
- ko'nikma va mahoratlarini asta-sekin rivojlantirib borib o'quvchilar, talabalarning anglab yetgan mustahkam bilimlarni egallashlari;
- o'quv materialining asosiy roli va dars berishning shakl va usullari unga mos kechishi;
- o'qitish jarayonida tarbiyaning barcha tomonlarini bir-biriga bog'liqligi;
- dars o'tish jarayonining yaxlitligi va tizimliliigi.

Ana shu qonuniyatlari asosida psixologiya o'qitish metodikasida tarbiyalovchi funksiyasining umumiy tizimi aniqlandi, ular quyidagilardan iborat:

- psixologik tushunchalar tizimi;
- o'qitish usullari tizimi;
- psixologiyani o'qitish jarayonida tarbiya va ta'limni rivojlantirish tizimi;
- o'quv ishlarining shakli, tizimi;
- dars o'tishning moddiy bazasini yaratish bilan bog'liq tizimi.

Metodika amaliy tekshirib ko'rilgan ilmiy nazariyani beradi, ukuchni tejab sarflash va o'quv vaqtdan to'g'ri foydalanish orqali o'qitishga imkon beradi. Metodika ta'lim va tarbiya maqsadlarini tushunib yetish, bu maqsadlarga olib boruvclii butun pedagogik jarayonni ko'ra olishni, dars berishning eng samarali va qulay shaldlari, metodlari va vositalarini egallab olishga imkon beradi. «Birgina nazariyasiz pedagogik tajribaning o'zi — deb ta'kidlaydi K.D.Ushinskiy, - bu tibbiyotda tabiblikning o'zidir». Bilimi yo'q o'qituvchi ko'pincha bir qator pedagogik xatolarga yo'l qo'yganidan so'ng,

metodikada ancha yillar oldin ma'lum bo'lgan narsalarni kashf etadi. Metodik nazariyani bilmay turib o'qituvchi ko'pincha o'zi puxta egallab olgan, lekin o'qitishning muhim bo'lmagan tomonlariga berilib ketib, har doim ham butun tizimni qamrab olish imkoniyatiga ega boimaydi, buning natijasida o'qitishning tarbiyalovchi va rivojlantiruvchi maqsadlariga erisha olmaydi. Bilim, mahorat va o'qituvchining shaxsiy qiyofasi, sinf e'tiborini mohirlik bilan jalb etishi o'qitish sifatini oshiradi, lekin shu bilan birga o'qituvchining o'qitish san'ati tug'ma qobiliyatlariga bog'liq deb xulosa chiqarishga asos bo'la olmaydi. O'qituvchi fanning faqatgina ilmiy mazmuninigina bilishi kerak, degan fikr ham noto'g'ri. Bunday qarashlar nazariya va metodikaga fan sifatidagi munosabatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. O'qituvchining pedagogik ijodi u metodika nazariyasini yaxshi egallab olganidagina yuksak samara berishi mumkin. Metodika o'qituvchi uchun ijod qilishga, turli usullarni bilib olishga, o'qitish va tarbiyalashda qulay uslub va vositalarni egallashlariga keng yo'l ochib beradi. Psixologiya yosh fiziologiyasi, falsafa, pedagogika bilan uzviy bog'liq bo'ladi va psixologiyani o'qitishda bu bog'liqlik o'rnatiladi. Falsafiy pedagogik bilimlar o'qituvchilar uchun juda zarurdir. Metodika xususan psixologik o'ziga xoslik bilangina belgilanmaganligi, balki o'qituvchilarning yosh xususiyatlari bilan ham belgilanganligi sababli yosh psixologiyasiga ham tayanadi. Tushunish, tasavvurlarining to'g'riligi tushunchasi va mahoratlarning rivojlanishi. O'qitish tamoyillarini bilish o'quv fanini samarali o'qitish uchun zarurdir. Tamoyil deganda - odatda, biror bir faoliyatda tayanilishi kerak bo'lgan ba'zi bir dastlabki qoidalar tizimi tushuniladi. Didaktik tamoyillar yoki o'qitish tamoyili o'qitish maqsadlari va o'quvchilarning o'rganish faoliyati qonuniyatlari bilan uzviy bog'liqdir. T.A. Ilina o'qitish tamoyillaridan quyidagilarini ko'rsatadi:

1. Ko'rgazmalilik tamoyili.
2. O'quvchilarning o'qishda ongliligi va faolligi tamoyili.
3. O'quvchilarning individual xususiyatlari va yoshini hisobga olish tamoyili.

Xulosa qilib shuni aytish lozimki, hozirgi kunda psixologiya fani rivojlanib borayotgan fanlar sohasiga kiradi. Hozirgi kunda psixologiya faniga qiziqish juda ham ortib. Maktabda, oliy ta'lim muassasalarida psixologiya fani tajribali mutaxassislar tomonidan o'rgatilib kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Shukurovna, X. M. (2023). YOSHLARNI OILADA MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASHDA MILLIY QADRIYATLARDAN FOYDALANISH. *Новости образования*.
2. Z.T. Nishonova, N.G'. Kamilova, D.U. Abdullayeva, M.X. Xornazarova <<Rivojlanish psixologiyasi pedagogik psixologiya>>
3. Muhamedova D.G'. , Mullaboyeva N.M., Rasulov A.I. <<Umumiy psixologiya>>
4. arxiv.uz
5. psixlogiya.uz